Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. ҚР МДА, М-576-ф. 1-руйҳ. 65-иш. – Б. 26-27.
2. ҚР МДА, ф.12, оп.3, д.553, л.371..
3. Қарақалпақстан радиосына – 60-жыл. 1932-1992. Юбилей тўплами. – Нукус, 1992. – Б. 3.
4. М.Садуллаевнинг маълумоти. – Нукус, 2021.
5. О.Ембергеновнинг маълумоти. – Нукус, 2021.
6. А.Отепбергеновнинг маълумоти. – Нукус, 2019.
7. Айтмуратов Ж. Ғәрезсизлик дәўиринде Қарақалпақстан мәдениятының раўажланыўы (Өзбекстан ҳәм Қарақалпақстан тарийхын үйрениўшилерге методикалық қолланба). – Нөкис, 1999. – Б. 20.
8. Мадреймов Т. Қәлбим сүйген кәсип. – Нөкис, 2009. – Б. 44.
9. ҚР МДА, М-576-ф. 1-руйҳ. 65-иш. – Б. 26-27.

REZYUME. Maqolada Qoraqalpog‘iston teleradiosining rivojlanish jarayonlari va ish faoliyatining tubdan o‘zgarishi, moddiy-texnik bazasi va ijodiy imkoniyatlarning kengayishi, yangi tok-shou hamda teleko‘rsatuvlarning tarixi ilimiy tahlilda yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье освещается развитие телевидения и радио Каракалпакстана и коренные изменения в его деятельности, расширение материально-технической базы и творческого потенциала, новый научный анализ истории новых ток-шоу и телевизионных программ.

SUMMARY. The article highlights the development of television and radio in Karakalpakstan and fundamental changes in its activities, the expansion of the material and technical base and creative potential, a new scientific analysis of the history of new talk shows and television programs.

TARJIMA SAN’ATINING O‘ZBEK-QORAQALPOQ ADABIY ALOQALARIDAGI O‘RNI

Qudrat Yusupov – *o‘qituvchi*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: nazm, lirik qahramon, she’r, adabiy aloqa.
Ключевые слова: стих, лирический герой, стихотворение, литературная связь.
Key words: verse, lyrical hero, poem, literary connection.

O‘zbek adabiyoti tarixining barcha davrlarida adabiy aloqalar maqsad va vazifalariga ko‘ra turli ko‘rinishlarda davom etib kelgan. Hozirgi paytda mazkur soha jahon miqyosda rivoj topib, uning yangi shakllari paydo bo‘ldi, jumladan, ijodkorlarning badiiy tarjima vositasida jahon adabiyoti tajribalariga murojaati kuchaydi. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida adabiy aloqalar ijodiy jarayonning faol jabhasiga aylandi. Albatta, bu borada qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan birga, oldimizda turgan vazifalar ko‘lami ham anchagina keng. Birinchi galda adabiyotimiz istiqbolini ko‘zlab amalga oshirish lozim bo‘lgan ishlar talaygina. O‘zbek va Qoraqalpoq xalqlari tarixan bir hududda yashab, umumiy madaniy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘lib kelgan. Bu yaqinlik adabiy aloqalarda ham o‘z ifodasini topgan. Ikkala xalq adabiyotida bir-biriga yaqin obrazlar, mavzular va badiiy uslublar uchrab turadi. Tarixiy, ijtimoiy, ma’naviy yaqinlik ularga o‘zaro boyish imkonini bergan. O‘zbek va Qoraqalpoq adabiy aloqalari o‘rta asrlarga borib taqaladi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodi Qoraqalpoq adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning g‘azalchilik an’anasi Qoraqalpoq she’riyatida ham keng yoyilgan. Adabiy aloqalarni har bir davrga xos xususiyatlar bilan tavsiflab ko’rganimizda:

-Ilk bosqich (XVI–XVIII asrlar): Boshlang‘ich aloqalar va umumturkiy madaniyat ta’siri adabiy aloqalarni faollashtiradi. Bu davrda O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning adabiy-madaniy hayoti umumiy ildizlarga ega edi. O‘zbek va Qoraqalpoq xalqlari o‘rtasida bevosita adabiy aloqalar hali mustahkamlanmagan bo‘lsa-da, ular umumturkiy adabiy an’analar-masalan, Yassaviy, Lutfiy, Navoiy maktabi orqali yaqinlashgan. Ularning xususiyatlar: Adabiyotda diniy-didaktik yo‘nalish ustun, tasavvufiy ta’sir kuchli bo’lgan. Adabiy manbalar: Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Navoiy ijodidagi mazmun bilan tanishilgan.

-Ikkinchi bosqich (XIX asr): Faol adabiy ta’sir va uyg‘unlik ikki xaliq orasida juda sezilarli darajada kechgan. XIX asrga kelib, o‘zaro aloqalar mustahkamlanadi. Qoraqalpoq xalq shoiri Berdaq Alisher Navoiy ijodini chuqur o‘rganadi va undan ilhomlanadi. Ajiniyoz ham o‘zbek

adabiy an’analaridan foydalangan. Shu bilan birga, o‘zbek shoiri Muhammad Sharif Gulxaniy, Munis, Ogahiy kabi shoir ijod namunalari qoraqalpoq adabiyotiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrdagi ijod mahsullarining asosiy mavzulari: xalqparvarlik, ilmga da’vat, ma’naviyat, ozodlik va hokoza. Shoirlarning asarlar o‘xshashligi: she’riy shakl va janrda yaqinlik; xalq tili va obrazlarda ko’rinadi.

-Uchinchi bosqich (XX asr boshlaridan 1991 yilgacha): Jadidchilik va sovet davri. Bu davrda jadid adabiyoti vositasida ma’rifatchilik ruhidagi aloqalar kuchaydi. Sovet davrida esa adabiyotlar ideologik ramkada bo‘lsa-da, tarjimalar, ijodiy safarlar orqali adabiy hamkorlik davom etdi. Qoraqalpoq yozuvchilari O‘zbekistondagi nashriyotlarda faol bo‘lishadi. Aloqalar tarjima, adabiy gazeta-jurnallar, umumiy adabiy siyosat shaklida ko’rinadi.

-To‘rtinchi bosqich (1991 yildan hozirgacha): Mustaqillik davri va yangilanish. Mustaqillikdan so‘ng adabiy aloqalar erkinlik ruhida yangi bosqichga ko‘tarildi. Ijodkorlar o‘rtasidagi muloqot, seminarlar, tanlovlar kuchaydi. Har ikki adabiyotda milliy uyg‘onish, tarixiy o‘zlik, istiqlol g‘oyasi ilgari surilmoqda. Qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz, Berdaq, I.Yusupov kabi ijodkorlarning asarlarida Navoiy ruhiyati seziladi. Ikkala adabiyotda ham vatanparvarlik, sevgi, xalqparvarlik, erk va ozodlik, insoniylik kabi mavzular ustuvor o‘rin tutadi. Masalan, Berdaqning vatan haqidagi satrlari bilan o‘zbek ijodkorlarining misralari ruhiy yaqinlikni ifodalaydi. Zamonaviy adabiy jarayonlarda o‘zaro ta’sir mustaqillikdan so‘ng bu adabiy aloqalar yanada faollashdi. Ijodkorlar o‘rtasidagi do‘stona uchrashuvlar, adabiy anjumanlar, tarjima ishlari, adabiy nashrlar bu jarayonni yanada kuchaytirdi. Qoraqalpoq shoira va yozuvchilarining asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, keng kitobxon ommasiga yetkazilmoqda. Xuddi shuningdek, O‘zbek ijodkorlarining asarlari ham qoraqalpoq kitobxonlariga tanish. O‘zbek va Qoraqalpoq adabiy aloqalari ikki xalqning ruhiy mushtarakligi, tarixiy yaqinligi va madaniy uyg‘unligining yorqin ifodasidir. Bu aloqa ikki adabiyotning boyishiga, ijodiy almashuv va o‘zaro anglashning chuqurlashuviga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu adabiy aloqalar yanada rivoj topishi, yangi izlanishlar va asarlarning yuzaga chiqishiga turtki bo‘ladi. Bir vaqtlar ustoz shoir Mirtemir boshlab bergan an’ana izchil rivojlandi, Berdaq asarlarining yangi tarjimalarini tayyorlashga kirishildi. Uning bir qanoti ilm bo‘lsa, ikkinchi qanoti badiiy tarjimachilik desak xato emas. [1.82] Mirtemir jahon adabiyotining durdonalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda ham katta hissa qo‘shgan. U A.S. Pushkin, M.Yu. Lermontov, N.A. Nekrasov, H. Xayyam, R. Tagor, M. Gorkiy, A. Maykov, Shandor Petefi, Geyne kabi shoirlarning asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan. Ayniqsa, «Iliada» dostoni tarjimasi o‘zbek adabiy tarjima san’atining yuksak namunasi hisoblanadi. Shoir Berdaq asarlari, “Qirq qiz” eposining mohir tarjimoni sanaladi. “Omongeldi”, “Ernazar biy”, “Ahmoq podshoh” dostonlarini o‘zbek o‘quvchilariga yetkazdi. Asarlarning Berdaq uslubiga xos xalqona badiiy shaklda o‘girilgani tarjimaning ustunligi. Ba’zi misralar sayqallanib, Sharq she’riyatiga mos, murabba usulida tarjima qilingani yaxshi samara bergan. O‘zbek tilining imkoniyatlari cheksiz jilodor. Biroq bu imkoniyatdan hamma tarjimon ham birday foydalanish salohiyatiga ega emas. Lekin Mirtemir bu masalada mahoratli, qalami chiniqqan tarjimon. Berdaqning har bir she’ri, hatto har bir misrasi tarjimasida Mirtemirona poetik talqinni sezasiz. Asliyat muharririga xos kolorit ruhi, oddiy, lekin chuqur ma’noli didaktik fikrlar tarjimada buzmasdan, butun nafosati bilan aks ettirilgan. Tarjimon lirik qahramonning ichki to‘lg‘anishlarini, ezgulik bilan jaholat ziddiyatini, adolatsiz tuzumga oshkora munosabatni qalban his qilib, o‘zbek tilida bera olgan. G‘oyasi, badiiyati, ta’sir salmog‘i ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati o‘ta jozibador, hayotbaxsh bunday asarni boshqa bir tilga o‘girish katta talant va mas’uliyat talab etadi. E.Ochilov she’rning bu fazilatlarini har tomonlama his qilib yaxshi o‘girgan. [2.10] Bandlarning har misrasi yangidan ijod qilingandek taassurot qoldiradi. Ba’zilari qisqartirib tarjima qilingan bo‘lsa-da, dostonlarning umumiy g‘oyaviy mazmuni, syujet va kompozitsion butunligiga ziyon yetmagan. Asl nusxaning yetakchi badiiy komponentlari, bosh qahramonlar xarakterini ochishga qaratilgan, o‘quvchiga ibrat va zavq bag‘ishlaydigan lavhalarning tarjimada aks etgani tarjimonning yutug’i: «Mirtemir Berdaq she’rlariga ijodiy yondashib, ancha-muncha erkin tarjima qilgan, ma’nosini tushunishga qiynalgan, ma’nosini anglab olmagan misralarni o‘zi to‘qigani bilan almashtirgan, ba’zi bandlarni butunlay o‘zgartirib yuborgan yoki tushirib qoldirgan». [3] Mirtemirning tarjimonlik faoliyatida mashhur qoraqalpoq eposi “Qirq qiz” tarjimasining ham o‘rni bor. Misralardagi ohangni, yuksak axloq bilan ma’naviy tubanlik kurashining folklordagi aksini Mirtemir yaxshi o‘zbekchalashtirgan. Mirtemir “Qirq qiz”ning takroriy joylarini qisqartirib tarjima qilgan. Asl nusxadagi mavjud ancha-muncha takroriy misralarni tarjimon

ixchamlashtirgan. Mazmunan uyg‘un qatorlarni saralab, obrazlarning harakat dasturiga moslarini tanlab o‘girgan. Shuning uchun o‘zbekcha tarjima yaxshi chiqqan, o‘zaro bog’lanmaydigan misra yo‘q. Mirtemir tarjimada asl nusxaning badiiyligini unutmagan holda, iboralarning o‘zbekcha muqobillarini o‘rni-o‘rniga qo‘yib, o‘quvchiga yetkaza olgan. Maqol, matal, mubolag‘a, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish kabi ifoda vositalar qoraqalpoq tilida qanchalik ta’sirli, jozibador bo‘lsa, tarjimada ham ma’noli, ta’sirli va o‘qishli. U mumtoz va zamonaviy she’riyatni o‘zbek kitobxoniga yaqinlashtirishda ko‘p mehnat qilgan. Uning nomi o‘zbek adabiyotining eng yirik vakillari qatorida tilga olinadi. Shoirning adabiy merosi yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Mirtemir ijodi o‘zbek poeziyasida xalqparvarlik, samimiylik va badiiy teranlik timsolidir. Uning she’rlari tarjimalari har doim o‘zbek xalqining yuragidan joy olgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U faqatgina shoir, tarjimon emas, balki xalqning dardkash o‘g‘loni, badiiy tafakkur namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimova Iroda Yo‘ldosh qizi. Qoraqolpoq adabiyoti va Berdaq ijodi. Central asian journal of education and innovation 2023, 2-son 82-b.
2. Бердақ. Халқ учун. Тошкент, 2021 й., 10-б.
3. Ma'naviyat yulduzlari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent-1999-yil.


REZYUME. Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarida badiiy tarjimaning o‘rni, bu tillarda yaratilgan asarlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida, qoraqalpoq ijodkorlarining asarlari o‘zbek adabiyotida ham o‘z orniga ega ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается роль художественного перевода в литературных связях между узбекским и каракалпакским языками, значение произведений, созданных на этих языках, в наше время, а также тот факт, что произведения каракалпакских авторов занимают достойное место и в узбекской литературе.

SUMMARY. In this article, the role of literary translation in the literary relations between Uzbek and Karakalpak languages is discussed, along with the contemporary significance of works created in these languages and the recognition of Karakalpak authors’ works within Uzbek literature.

MUZÍKA ÁLEMI

КОМПОЗИТОР ҚУРБАНБАЙ ЗАРЕТДИНОВТЫҢ «ТУМАРИС» ОПЕРАСЫ



Композитор – Қурбанбай Заретдинов.
Либретто авторы – Ибрайым Юсупов
Музыка басшысы – Аида Абдуллаева
Көркемлик жақтан жетекши – Қуўатбай Абдреймов
Сахналастырыўшы режиссёр – Жалғасбай Султабаев
Художник – Барлықбай Айтмуратов
Спектакль 1 саат 20 минут даўам етеди.

Композитор Қ.Заретдиновтың И.Юсупов либреттосына жазылған «Тумарис» операсында халықтың миллий қәдириятлары, тарийхый-мәдений турмысы, үрп-әдетлери ҳәм тарийхый тулғалар образы өз сәўлелениўин тапқан. Бул опера бүгинги театр ықласбентлерин ўатансүйиўшилик руўхында тәрбиялаўда үлкен әҳмийетке ийе. «Тумарис» операсында халық қаҳарманларының образы, тарийхый ўақыялар, тарийхый шахслардың ўатанға болған меҳир-муҳаббаты шеберлик пенен ашып берилген.

«Тумарис» операсы бес бөлим, төрт картинадан ибарат болып, онда Туран халықларының аҳаманийлер басқыншылығына қарсы гүресине басшылық еткен батыр сәркәрда, массагетлер маликаси Тумарис ҳәм парсы патшасы Кир II ортасындағы саўаш сәўлеленген. «Тумарис» операсын жаратыўда композитор тек шайырдың поэмасындағы ўақыяларды ғана емес, ал ол – Тумарис жасаған дәўир руўхын жанландырыўда ҳәр түрли дәреклерге сүйенеди. Бул ушын Геродот, Стробон ҳәм басқалардың тарийхый-илимий шығармаларын, Тумарис ҳаққындағы халық аўызеки дөретпелерин де терең үйренген ҳәм дәўир колоритин музыкалы ырғақлар тийкарында жаратып бере алған.